



*Sirdaryo viloyati*  
*Statistika boshqarmasi*

**ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN  
INVESTITSIYALAR**

*2021- yil yanvar-dekabr oylarida*

**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy  
kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar**

Joriy davrda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8708,0 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag‘lar hisobiga to‘g‘ri keldi 7115,6 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 81,7 % ni, korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan esa 1592,4 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 18,3 % ini tashkil etdi.



*Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar*

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan, % da</b>
<b>Jami</b>	<b>8708,0</b>	<b>116,4</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>2439,7</b>	<b>144,7</b>	<b>28,0</b>
Respublika byudjeti	1108,6	189,1	12,7
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlari	1148,6	124,6	13,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	157,1	-	1,8
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	25,4	14,3	0,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>6268,3</b>	<b>108,2</b>	<b>72,0</b>
Xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	3792,0	139,5	43,6
Aholi mablag'i	243,9	108,3	2,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	883,9	106,0	10,1
Korxonalar mablag'lari	1348,5	66,9	15,5

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2439,7 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 28,0 % ini hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 6268,3 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 72,0 % ini tashkil qildi.


2021- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Markazlashgan investitsiyalar hajmi



### Markazlashmagan investitsiyalar hajmi




2021- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Markazlashgan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

( ulushi, % da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi 13,2 % O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga va Respublika byudjeti tomonidan jami markazlashgan investitsiyalar ulushidagi hajmi 12,7 % ga to'g'ri keldi.


Suv tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

2021- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ulushi, % da)




Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobidan o'zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 43,6 % ini tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa investitsiya loyihalari.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 15,5 % ni korxonalar mablag'lari tashkil etadi. Bu investitsiya va kreditlar korxonalar va tashkilotlarning o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida amalga oshirishlari bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


### Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmi bo'yicha shahar va tumanlar kesimida Boyovut tumani, Sirdaryo tumani, Guliston shahri, Shirin shahri, Guliston tumani va Yangiyer shahrida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Boyovut tumani, Guliston shahri va Sardoba hamda Sirdaryo tumanlarida kuzatildi.

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 4021,3 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 4429,4 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 257,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa, asosiy qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (% da)



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlab chiqarish sanoati 2248,1 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 25,8 % ni, shu jumladan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 518,8 mlrd. so'mni yoki 6,0 % ni tashkil etdi.

Turar joy qurilishiga 242,3 mlrd. so'm yoki 2,8 % ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligida 1128,5 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 13,0 % ni tashkil etdi.

Elektr energiya sohasida 2609,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 30,0 % o'zlashtirilgan.


Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.



2021- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy davrda 4940,6 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 56,7 % xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.


Bu Boyovut tumani, Sirdaryo tumani, Shirin va Guliston shahri hamda Sardoba tumanlarida yuqori investitsiyalar hajmiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida "Sirdaryo IES" AJ ning moddiy texnika bazasini yaxshilash hisobiga amalga oshirilgan.

2021- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi, % da



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Foydalanishga topshirilgan turar joylar


Ijtimoiy sohada joriy davrda umumiy maydoni 135,9 ming kv.m bo'lgan 778 ta turar joy obyekti qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 68,8 ming kv.m. bo'lgan 430 ta uy-joylar qishloqlarda joylashgan.



Turar joy qurilishida jami viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo'yicha Guliston shahri va Sirdaryo tumani yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Xovos tumanida esa eng kam turar joylar ishga tushirildi.


Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi aholining o'zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog'liq.

### Foydalanishga topshirilgan turar joylar joylashuvi (% da)



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

### Foydalanishga topshirilgan turar joylar



*Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul: B.Umarqulov  
Aloqa telefoni: (67)236-86-27*